

Uloqda

(Hikoyadan parcha)

Abdulla Qodiriy



Hikoya – bosh qahramon hayotidan olingan biror voqea haqidagi kichik adabiy asar.

Sujet – asarda sodir bo'layotgan voqealar zanjiri, ketma-ketligi.

Asar mavzusi – asarning nima haqidaligi.

Asar g'oyasi – muallif kitobxonga yetkazmoqchi bo'lgan asosiy fikr.



O'qing.

Kecha dadamdan so'rab qo'yganim uchun bugun akam ham qarshilik qilmadi.

Choyni naridan beri ichib, otxonaga yugurdim. Qashlog'ichni oldim-da, qora qashqamni yalang'ochlab u yoq-bu yog'ini qashlab chiqdim. Jonivor tipir-tipir qiladi, bosh chayqaydi, yer tepinadi, dum silkitadi...

Ko'nglimga: "Xudo xohlasa kelasi yilga bir uloqlar* chopayki, hamma meni: "Turg'un chavandoz", deb atasin", degan orzular tushadi.



Ulug‘ hayitdagi hayitlikka oldirgan mo‘g‘ul egarcha bilan g‘alatcha qilib toychamni egarladim. Tog‘amga yalinib-yalpog‘lanib oldirgan o‘ris yuganni* artib-surtib soldim-da, o‘zim chetroqdan turib kam-ko‘stini kuzatdim: quyushqoni* ham o‘rnida, egar ham yaxshi qo‘ngan, qorinbog‘i* ham jips, yugan ham to‘ralarnikidek! Lekin umuldirig‘ining* yo‘qligi biroz ko‘nglimni g‘ash qildi.

Anchagina o‘ylab turganimdan keyin, akamning yugan uchun asrab qo‘ygan qayishi esimga tushib, sekingina yer-to‘ladan haligi qayishni olib chiqib, umuldiriq yasadim.

Endi toycham juda ham gijinglab, xuddi to‘ralarnikidek bo‘lib ketdi. U yoq-bu yog‘ini supurgandan keyin ustunga qantarib* qo‘ydim.

Endi qoldi: oq jujuncha kamzulimni*, o‘rischa shimni, amirkon etikni, baxmal to‘ppini kiyish... Ana shundan keyin otga minsak, chin to‘racha bo‘lamiz-da!

Otga minib, uni qamchilagan edim, jonivor qashqacham chopib ketdi.





uloq – ot ustida o'ynaladigan o'yin
yugan – otni boshqarish uchun uning boshiga taqiladigan moslama
quyushqon – egarning oldinga siljimasligi uchun otning dumi ostidan aylantirib, egarga birlashtiriladigan qayish
qorinbog' – egarni otning qorni tagidan mahkam tortib turadigan enli tasma
umuldiriq – egarning ot ko'krigiga mahkamlanadigan, egarni orqaga surilib ketishdan ushlab turadigan qismi
qantarmoq – yem-xashakka yeta olmaydigan qilib, arqonni kalta qilib bog'lamoq
jujuncha – qalin ipak gazlama
kamzul – yengsiz, kalta erkaklar kiyimi



1. Hikoya nima haqida ekan?
2. Bola toychasining kam-ko'stini nega sinchiklab kuzatdi?
3. Hikoya qahramonining qaysi fazilatlari matnda yaqqol ko'rinadi?
4. Sizningcha, qahramonning orzusi amalga oshadimi? Nima uchun?
5. Qahramonning o'rnida bo'lganingizda orzuingiz amalga oshishi uchun nimalar qilgan bo'lardingiz?



Hikoyani o'qing. Mazmunini so'zlab berishga tayyorlaning.

